

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**

G.Sh. Rixsiyeva

2024-yil “01” 07

Ro‘yxatga olindi: № BD-60230100

2024-yil “01”

**XORIJIY SHARQ (XITOIY) TILI**

**FAN DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	200 000 - San‘at va gumanitar fanlar
<b>Ta‘lim sohasi:</b>	230 000 – Tillar
<b>Ta‘lim yo‘nalishi:</b>	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (sharq tillari bo‘yicha)

**Toshkent - 2024**

Fan/modul kodi XShT11-874	O'quv yili 2024/2025 2025/2026 2026/2027 2027/2028	Semestr 1,2,3,4,5,6,7,8	ECTS - Kreditlar 10,10,10,10,10,10,8,6
------------------------------	--	----------------------------	---

Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus	Haftadagi dars soatlari 10,10,10,10,10,10,8,6
----------------------------	---------------------------	--

1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Xorijiy sharq tili (Xitoy tili)	888	1332	2220

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarga hozirgi kunda tili Xitoy mamlakatda ijtimoiy-siyosiy, mamlakatshunoslik, tarixiy-filologik va maishiy hayot doirasida qo'llanilayotgan hozirgi xitoy tilning og'zaki va yozma shaklini yerkin qo'llay olish, muloqot olib borish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lib, 4 yil davomida talaba faol qariyb 5000 ta so'z boyligiga ega bo'lishi kerak. Ushbu kompetensiyalarni takomillashtirishda talabalar "Ibrat farzandlari" online platforma hamda maxsus videomahsulotlardan foydalangan holda o'z bilimlarini mustahkamlaydilar.

**Fanning vazifasi:**

- Xitoy tilda og'zaki dialogik va monologik nutqni tushunish;
- Xitoy tilda yozma matnlarni o'qish va tushunish;
- Xitoy tilda yozish;
- Xitoy tilda ma'lum bir vaziyatda suhbat olib borish;
- Xitoy tilda gapirib berish, ma'lumot berish, nutq so'zlash;
- ona tili va Xitoy tilda olib borilayotgan ikki yoqlama suhbat jarayonini sinxron tarjima qilish;
- ma'lumotlar, ma'ruza va nutqlarni ona tilidan Xitoy tilga va Xitoy tildan ona tiliga sinxron va og'zaki tarjima qilish;
- ona tilidan Xitoy tilga va Xitoy tildan ona tiliga yozma tarjima qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

**II. Xorijiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**Xorijiy sharq tili (boshlang'ich daraja I)**

**1-mavzu. Xitoy va xitoy tili haqida ma'lumot**

Xitoy mamlakatining kelib chiqishi va xitoy tilining tillar oilasidagi o'rni va xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi.

**2-3mavzu. Xitoy tilining fonetik xususiyatlari**

Xitoy tilining o'ziga hos xususiyatlari bilan tanishtirib o'tilgandan so'ng, uning o'ziga xos fonetik strukturasi va uning til o'rganishdagi muhim ahamiyati ko'rsatib beriladi.



#### 4-5 mavzu. Hozirgi zamon xitoy tilida bo'g'in, ohang, shengmu va yunmu

Hozirgi xitoy tilining qadimgi xitoy tilidan nimasi bilan farqlanishi, uning rivojlanish bosqichlari, fonetik strukturadagi o'zgarishlari tushuntirib o'tiladi. Undan tashqari xitoy tilida iyerogliflarni bo'g'inlarga bo'linishi, ulami o'z ichida shenmu va yunmularga bo'linish xususiyatlari ko'rsatib beriladi.

#### 5-6 mavzu. Fonetika. Shengmu: d, t, g, k, f; Yunmu: ei, ou, an, ang, eng, iao, iou; Yengil ohang

Xitoy tili fonetikasida shengmu bu undosh tovushlar bo'lsa, yunmu bu unli tovushlar. Har bir shengmu yoki yunmu ayrim holatlarda boshqacha talaffuz qilinganligi tufayli ularni alohida o'rganib chiqiladi. d, t, g, k, f- shengmulari eng ko'p uchraydigan shengmular. ei, ou, an, ang, eng, iao, iou- esa talaffuz jihatdan boshqacha talaffuz qilinadigan yunmularga kiradi. Undan tashqari dars mobaynida yengil ohang tushunchasiga alohida to'xtalib o'tamiz.

#### 7-8-mavzu. Fonetika: Shengmu: zh, ch, sh, r, q, x, j Yunmu: -i, ai, uai, ong, ia, iang, uei(ui), uen(-un), ue, uan; "不" ohang o'zgarishi.

Fonetika bo'limida umuman boshqacha talaffuz qilinuvchi zh, ch, sh, r, q, x, j shengmulari, ularning ishlatilishi va xususiyatlari ko'rsatib beriladi. -i, ai, uai, ong, ia, iang, uei(ui), uen(-un), ue, uan yunmalarining qaysi shengmular bilan qanday holatda ishlatilishi yoki talaffuzda tushib qolish holatlari o'rganiladi. "不" iyeroglifining ishlatilishi, tarjimai va uning ohang o'zgartirish xususiyatiga alohida to'xtalib o'tiladi.

#### 9-mavzu. Umumiy so'roq gaplar; "也" ravishining pozitsiyasi; Xitoy tilida so'z tartibi; "是" ning qo'llanilishi

Xitoy tilida so'roq gaplarning turlari, gap tuzilish strukturasi, umumiy so'roq gaplarning tuzilish tarkibi ko'rsatib beriladi. "也" ravishining tarjimai va uning gapdagi o'rni o'rganiladi; "是" iyeroglifining gapda qayso gap 'lagi' rinishida kelishi uning darak, inkor va so'roq gaplarda ishlatilishi.

#### 10-mavzu. Xitoy yozuvi tarixi va uning umumiy xususiyatlari

Xitoy yozuvi tarixi. Yozuvning shakllanish bosqichlari. Xitoy yozuvining o'ziga hos xususiyatlari.

#### 10-11 mavzu. Xorijiy imlo chiziqlari, Xitoy iyerogliflarini yozish tartibi

Xitoy yozuvi ya'ni iyerogliflarning Xorijiy imlo chiziqlari, ularning turlarga bo'linishi. Xitoy iyerogliflarining yozish tartibining o'ziga hos xususiyatlari.

#### 12-mavzu. Iyeroglif kalitlari va yon bo'laklari

Iyerogliflarning bo'laklarga bo'linishi, yon bo'laklari. Kalit tushunchasi.

#### 13-mavzu. Iyerogliflar hosil bo'lishining 6 turkumi

Iyerogliflarning kalitlarga bo'linishi tarixi. Kalitlarning 6 ta katta turkumga bo'linishi va ularning yasaliş xususiyatlari.

#### 14-mavzu. Xitoy tilida "er"lashish hodisasi ("儿化")

Xitoy tilining o'zidan kelib chiqqan holda "er"lashish hodisasi. Uning til va dialektga ta'siri.

#### 15-16 mavzu. So'roq olmoshlari

Xitoy tilida so'roq olmoshlari orqali so'roq gaplarning yasaliş. Ularning turlari.

Ishlatish xususiyatlari va e'tiborli jihatlarini o'rganish.

#### 17-18 mavzu. Fe'l + 一下; "啊" yuklamasi

Fe'l + 一下 strukturasi hozirgi xitoy tilida ishlatilishi jihatdan ommabop bo'lgan struktura. Uning yasaliş, gapdagi o'rni.

#### 19-20 mavzu. Tasdiq-inkor so'roq gaplar.

Xitoy tilida tasdiq inkor gaplarning ishlatilishi. Ularning ayrim iyerogliflar orqali yasaliş va uning tildagi o'rni.

#### 21-22 mavzu. "呢" yuklamasi; "也" va "都" ning gapdagi o'rni

"呢" yuklamasi gapdagi o'rni. Ishlatish strukturasi. "也" va "都" ning gapdagi o'rni. Ularning farqlanishi.

#### 23-24 Mavzu. "有"lik gaplar; 1-100 gacha bo'lgan sonlar

"有" iyeroglifining tarjimai, gapda ishlatilishi, inkor va so'roq gapdagi ko'rinishlari.

#### 25 -mavzu. Hisob so'zlar

Xitoy tilida hisob so'zlarning ishlatilishi, ishlatish xususiyatlari.

#### Xorijiy sharq tili (boshlang'ich daraja II)

#### 1-2 Mavzu: Hisob so'zlar aniqlovchi sifatida; "和" bog'lovchisi: "还" va "太"

ravishlari; 几 va 多少 yordamida so'roq gaplar yasash

Hisob so'zlarning gapda aniqlovchi sifatida qo'llanilishi; "和" bog'lovchisining foydalanish qoidalari; "还" va "太" ravishlarining ishlatilish qoidasi hamda "几" va "多少" so'roq olmoshlari yordamida gaplar tuzish.

#### 3-Mavzu: Yil, oy, kun va hafta kunlari

Xitoy tilida yil sanasini o'qish qoidasi; 12 oyning nomlari; Sana va vaqtning ifodalanishi; Hafta kunlarining nomlari.

#### 4-5 Mavzu: Ot kesimli gaplar; Payt holi

Ot, otlashgan birikma, miqdoriy so'zlar va boshqalar gapda kesim vazifasida ishlatilishi; Vaqtni bildiradigan so'zlar hol vazifasida ishlatilishi.

#### 6-7 Mavzu: Tasdiq-inkor so'roq gaplar; "..... , 好吗/对吗?" shaklidagi so'roq

gaplar; "多" ravishi

Bo'lishli va bo'lishsiz shakldagi so'roq gaplarning gapda qo'llanilishi; "..... , 好吗/对吗?" shaklidagi so'roq gaplarning ishlatilish qoidasi; "多" ravishining boshqa so'z turkamlari bilan gapda qo'llanilishi.

#### 8-9 Mavzu: Ikki to'diruvchili gaplar. Old ko'makchili birikmalar

"送", "教" va boshqa fe'llar ikki to'diruvchili gaplarda qo'llanilishi; "跟", "给" old ko'makchilarining gapda foydalanish qoidalari.

#### 10-Mavzu: Sifat kesimli gaplar; "很" ravishi; 是不是/是吗? shaklidagi so'roq



## gaplar

Xitoy tilida sifatlarning kesim vazifasida kelishi: “很” ravishining gapda qo‘llanilishi; 是不是/是吗? shaklidagi so‘roq gaplarning qo‘llanilish usullari.

**11-Mavzu: “这” va “那” ko‘rsatish olmoshlari aniqlovchi sifatida; So‘roq olmoshli birikmalar**

“这” va “那” ko‘rsatish olmoshlari gapda aniqlovchi sifatida qo‘llanilishi hamda hisob so‘zlar bilan birga ishlatilish qoidalari; “谁” “什么” “哪儿” “哪儿” “怎么” “怎么样” “多少” “几” so‘roq olmoshlari orqali tuziladigan so‘roq olmoshli birikmalar.

**12-13 Mavzu: Xitoy tilida pul biriklari; Modal fe‘llar bilan ifodalangan kesimli gaplar; 给 ishtirokidagi ikki to‘ldiruvchili gaplar**

Xitoy tilida pul birliklarining ifodalanishi; “想” va “可以” modal fe‘llarining tasdiq va inkor shakllari hamda gapda qo‘llanilishi; “给” ning gapda qo‘llanilish qoidalari.

**14-Mavzu: Xitoy tilida vaqtning ifodalanishi; “一点儿” va “有点儿” ning qo‘llanilish xususiyatlari**

Xitoy tilida vaqtning 点 dian( soat), 刻 ke( chorak), 分 fen( daqiqa) so‘zlari yordamida ifodalanishi; “一点儿” va “有点儿” ning so‘z turkumlari bilan birgalikda qo‘llanilishi.

**15-Mavzu: Xitoy tilida predlogli so‘z birikmalar**

Xitoy tilida old ko‘makchilarning qo‘llanilish qoidalari, miqdorihamda ularning ishlatilish chastotasi; 了, 着, 过 suffikslarining ishlatilish qoidalari

**16-Mavzu: Xitoy tilida vaqtning ifodalanishi**

Ot, olmosh, sifat, fe‘l, ravish so‘z turkumida vaqtning ifodalanishi; Vaqtni ifodalovchi yordamchi so‘zlarning grammatik xususiyatlari.

**17-18 Mavzu: Modal fe‘llar**

Xitoy tilida modal fe‘llarning grammatik xususiyatlari; Xitoy tilida modal fe‘llar: 要, 想, 应该, 能, 会 hamda ularning gapda qo‘llanilish qoidalari.

**19-Mavzu: Qo‘shfe‘lli gaplar. Maqsadning ifodalanishi. “还” harakat davomiyligining ifodalanishi**

Qo‘shfe‘lli gaplarda fe‘l so‘z turkumining qo‘llanilish qoidasi; “还” harakat davomiyligining ifodalovchi so‘zning grammatik xususiyati hamda gapda qo‘llanilish qoidasi.

**20-21 Mavzu: Alternativ soroq gaplar; Ega—kesimli gaplar; “每” olmoshi; 跟...一起 konstruksiyasi**

Alternativ so‘roq gaplarning shakllari, “还是” orqali yasaladigan alternativ so‘roq

gaplar; Ega—kesimli gaplarning tuzilishi hamda inkor shakli; “每” olmoshining grammatik xususiyati va gapda qo‘llanilishi; 跟...一起 konstruksiyasining gapda qo‘llanilishi.

**22-Mavzu: “了” yordamchi so‘zi**

“了” yordamchi so‘zining grammatik xususiyatlari; “了” so‘zi “跟” va “不要” bilan birga qo‘llanilishi;

**23-Mavzu: 兼语句。 Umumiy bo‘lakli gaplar va ikkinchi darajali bo‘laklar**

兼语句 Umum bo‘lakli gaplarning “请”, “让” buyruq ma’noli fe‘llar bilan qo‘llanilishi; Xitoy tilida aniqlovchi, to‘ldiruvchi va hol.

**24-25 Mavzu: Miqdor va daraja to‘ldiruvchilari; “就” ravishi; “遍” fe‘l hisob so‘zi; 是 ishtirokidagi gaplar**

Miqdor va daraja to‘ldiruvchilari quyidagi konstruksiyalarda qo‘llanilishi: “Ega + fe‘l + 得 + sifat, Ega + sifat + 极了, Ega + sifat + 得 + 不得了 / 很, Ega + fe‘l + 得 + sifat + 得很 / 极了”; “就” ravishining grammatik xususiyatlari; “遍” fe‘l hisob so‘zining gapda qo‘llanilishi; 是 ishtirokidagi gaplar.

**Xorijiy sharq tili (boshlang‘ich o‘rta daraja)**

**1-mavzu. 把(1) predlogi ishtirokidagi gaplar**

Xitoy tilida predloglar va 把 predlogi xususiyatlari haqida ma‘lumot beriladi.

**2-mavzu. 对” predlogining ishlatilishi. “就” ravishining ta‘kidlash ma‘nosida qo‘llanilishi. “从” old ko‘makchisi**

Xitoy tilida predloglar xaqida tushunchalar berilgandan so‘ng, 对, 从 predloglarining qo‘llanilishi, hamda ularning gapdagi o‘rni haqida tushunchalar beriladi

**3-4-mavzu. 位 hisob so‘zining ishlatilishi. 了 yordamchi so‘zining ishlatilishi.**

**Modal yordamchi bo‘lak**

Xitoy tilidagi hisob sozlar haqida ma‘lumotlar berilib, ularning o‘rni va xususiyatlari tushuntiriladi, 位 hisob sozining ishlatilishi yoritib beriladi.

了 yordamchi so‘zining ishlatilishi haqida tushunchalar berilib, uning gapdagi pozitsiyasi va ma‘no guruhlari yoritib beriladi.

**5-6-mavzu. Egasiz gaplar. 只好 ravishining ishlatilishi. 动词的重叠 Fe‘lning ikkilanishi**

Xitoy tilida egasiz gaplarning turlari o‘rganilib, matnlardagi jumlar orqali tahlil qilinadi. 只好 ravishining ishlatilishi va tarjimai yoritib beriladi.



**动词的重叠** xitoy tilida reduplikatsiya tushunchasiga ma'lumot beriladi, Fe'ning ikkilanishi yoritilib, xususiyatlari o'rganiladi.

**7-8- Xitoy tilida fe'l nisbati. 100到10000的称数法** 100 dan 10000 gacha bo'lgan sanoq sonlar

Xitoy tilida nisbatlar ularning turlari, Xitoy tilida fe'l nisbati haqida to'liq ma'lumot berilib, tarjima va tahlil qilinadi.

**100到10000的称数法** 100 dan 10000 gacha bo'lgan sanoq sonlar tizimi tahlil va tarjimalari, ularning qo'llanilishi.

**9-10-mavzu. Harakat miqdorini bildiruvchi to'ldiruvchi. “就” ravishi**

Harakat miqdorini bildiruvchi to'ldiruvchilarning qo'llanilishi, gapdagi o'rni o'rganiladi.

“就” ravishining qo'llanilishi va uning xususiyatlari yoritib beriladi.

**11-12- mavzu. 把 (2) predlogi ishtirokidagi gaplar. O'tgan zamon fe'li. “自己” olmoshi, 上 vaqtning tartibini ham bildiradi**

把predlogi ishtirokidagi gaplar taxlili va tarjimasi

Xitoy tilida zamon kategoriyasi. O'tgan zamon fe'li haqida Xorijiy tushunchalar beriladi

“自己” olmoshi gapda qo'llanilishi, 上 mazmun mohiyati yoritiladi.

**13-14-mavzu. Xarakat davomiyligini ifodalovchi to'ldiruvchi. “再” ravishining ishlatilishi. Yo'nalishni bildiruvchi sodd yordamchi bo'lak**

Xarakat davomiyligini ifodalovchi to'ldiruvchilarning xususiyatlari o'rganiladi.

“再” ravishining ishlatilish qoidalari, yo'nalishni bildiruvchi sodd yordamchi bo'lakli gaplarning tarjimasi va tahlili, gapdagi o'rni ko'rsatib beriladi

**15-16-mavzu. “就” ravishining qo'llanilishi. “把”(3) old ko'makchili gaplar.**

**时量补语** Vaqt va o'lchovni bildiruvchi yordamchi bo'lak

“就” ravishining qo'llanilishi. “把” old ko'makchili gaplar ularning tarjimasi va tahlili masalalari.

**时量补语** Vaqt va o'lchovni bildiruvchi yordamchi bo'lak haqida tushunchalar, uning gapdagi o'rni.

**17-mavzu. Ko'p fe'lli tizimli gap**

Ko'p fe'lli tizimli gaplarning yasalishi, tarjimasi va tahlili.

**18-mavzu. Yo'nalishni ifodalovchi sodd to'ldiruvchi.**

Xitoy tilida yo'nalishni ifodalovchi sodd to'ldiruvchili gaplarning tuzilishi, xususiyatlari.

**19-20-mavzu. Natija to'ldiruvchisi**

Xitoy tilida Natija to'ldiruvchisining qo'llanilish qoidalari

**21-22-mavzu. 不但, 而且” konstruksiyasining ishlatilishi**

Xitoy tilida konstruksiyalarning qo'llanilishi va ahamiyati “不但, 而且” konstruksiyasining ishlatilishi

**23-24- mavzu. Mavjudlik gaplari**

Xitoy tilida Mavjudlik gaplari. Ularning yasalish turlari, tarjima va tahlil masalalari

**25- mavzu. “跟..... (不) 一样” taqqoslash birikmasi**

“跟..... (不) 一样” taqqoslash birikmasining ishlatilishi, ularning turlari.

**Xorijiy sharq tili (o'rta daraja I)**

**1-2- “刚”va “才” ravishlari hamda “刚才” ot so'z turkumlari. “像一样”**

**konstruksiyasining ishlatilishi,**

Xitoy tilida “刚”va “才” ravishlari hamda “刚才” ot so'z turkumlarining ishlatilish qoidalari, ularning o'xshash va farqli jihatlari.

“像一样” konstruksiyasining ishlatilishi xususiyatlari o'rganiladi,

**3-Mavzu: 把 (4) predlogining ishlatilishi. Ketma-ket fe'l kesimli gap. Qurolni va harakat shaklini ifodalash**

把predlogining ishlatilishi qoidalari. Gapdagi o'rni.

Ketma-ket fe'l kesimli gapning tuzilishi, Xorijiy tushunchalar. Qurolni va harakat shaklini ifodalash usullari.

**4-5 Mavzu: 因为... 所以 ... konstruksiyasi,...的时候 konstruksiyasi, “或者” bog'lovchisi**

因为... 所以 ... konstruksiyasi,...的时候 konstruksiyasi kabi konstruksiyalar. Ularning mazmun mohiyati,

“或者” bog'lovchisining ishlatilish qoidalari

**6-7 Mavzu: Modallikni ifodalovchi ikkinchi darajali bo'lak (qo'shimcha bo'lak).**

**汉语句子的六种基本成. Oltita Xorijiy gap bo'laklari**

Modallikni ifodalovchi ikkinchi darajali bo'lak (qo'shimcha bo'lak)larning xususiyatlari, gapdagi o'rni.

汉语句子的六种基本成. Xitoy tilidagi Oltita Xorijiy gap bo'laklari xaqida tushunchalar beriladi, ularning turlari batafsil o'rganiladi

**8-9 Mavzu: Modallikni ifodalovchi ikkinchi darajali bo'lak 动词谓语句, Fel-kesimli gap**

Xitoy tilida modallikni ifodalovchi ikkinchi darajali bo'laklarning xususiyatlari, gapdagi o'rni haqida tushunchalar beriladi.

动词谓语句, Fel-kesimli gaplarning yasilishi o'rganiladi

**10-11-Xitoy tilida qiyosiy gaplar. 语气助词 “吧”**

Xitoy tilida qiyosiy gaplar turlari, ularning sintaktik xususiyatlari o'rganiladi. 语气助词



吧”。“吧”yuklamasi. gapdagi o‘mi xaqida tushunchalar beriladi

**12-13 Mavzu: Xitoy tilida fe‘lning majxul nisbati va 还‘ravishi. 副词“再” ravishi**

Xitoy tilida fe‘lning majxul nisbati va qo‘llanilish qoidalari o‘rganiladi.

还‘ravishi. 副词“再” ravishlarining leksik-semantik tahlili o‘rganilib, Xorijiy tushunchalar beriladi.

**14-15-Mavzu: Xitoy tilida fe‘lning majxul nisbati va 还 ravishi. 方位词Joy va yo‘nalish so‘zlari.**

Xitoy tilida fe‘lning majxul nisbati, uning gapdagi o‘mi tushuntiriladi

还‘ravishining xususiyatlari tahlil qilinadi.

方位词Joy va yo‘nalishni ifodalovchi so‘zlarning qo‘llanilish qoidalari ko‘rib chiqiladi.

**16-17-Mavzu: 坏 va 错 ning natija to‘ldiruvchisi vazifasida kelishi.**

**表示存在的句子 Mavjudlikni ifodalovchi gaplar.**

Xitoy tilida 坏 va 错 ning natija to‘ldiruvchisi vazifasida kelishi qoidalari o‘rganiladi.

表示存在的句子 Mavjudlikni ifodalovchi gaplarning yasalihi va tarjimalari o‘rganiladi.

**18-Mavzu: Xitoy tilida 是 fe‘li ishtirokidagi gaplar.**

Xitoy tilida 是 fe‘li ishtirokidagi gaplar, ularning grammatik xususiyatlari.

**19-20-Mavzu: 动作即将发生 Yaqin orada sodir bo‘ladigan ish – harakat**

Xitoy tilida 动作即将发生 Yaqin orada sodir bo‘ladigan ish – harakat turli gaplarning yasalihi, ularning turlari yoritiladi.

**21-Mavzu: Xitoy tilida “又” ravishining qo‘llanishi. “从... ..到... ..”**

konstruksiyasi. “还“ ravishi

Xitoy tilida “又” “还“ ravishi, ularning o‘xshash va farqli jihatlari, hamda qo‘llanishi qoidalari.

“从... ..到... ..” konstruksiyasi ning man‘no va mazmuni yoritiladi.

**22-23-Mavzu: Xitoy tilida “就”, “都”, “才” ravishlari. 动作或状态的持续. Harakat yoki holatning davomiyligi**

Xitoy tilida “就”, “都”, “才” ravishlarining qo‘llanilish qoidalari, farqlari.

动作或状态的持续. Harakat yoki holatning davomiyligini ifodalovchi gaplarning

ko‘rinishi, yasalihi qoidalari.

**24-Mavzu: Fe‘l-kesimli gaplar**

Fe‘l-kesimli gaplarning yasalihi, grammatik xususiyatlari o‘rganiladi.

**25-Mavzu: Harakat amalga oshirilganligi holati. 几种补语 Yordamchi**

**bo‘laklarning bir qancha turlari**

Harakat amalga oshirilganligi holatini ifodalash shakli.

几种补语 Yordamchi bo‘laklarning bir qancha turlari, ularning tahlili va tarjimai o‘rganiladi.

**Xorijiy sharq tili (o‘rta daraja II)**

**1-2 Mavzu: Xitoy tilida harakat yonalishni ifodalovchi fe‘llar**

Xitoy tilida harakat yo‘nalishini anglatuvchi fe‘llarning tuzulishi, ularning gapdagi o‘mi va ishlatilishi. Harakat yo‘nalishni ifodalovchi fe‘llarning ishlatilishidagi xususiyatlari.

**3-Mavzu: Xitoy tilida ta‘kidning ifodalanishi**

Xitoy tilida ta‘kidning ifodalanishi; gapda ta‘kid so‘zlar orqali dialoglar tuzish, og‘zaki va yozma nutqda ta‘kid so‘zlarning qo‘llanilishi.

**4-5 Mavzu: Xitoy tilida ravish va ravishdoshlar.**

Ravish va ravishdoshning farqlari. Ularning gapdagi xususiyati. Turlari va gapdagi o‘mi.

**6-7 Mavzu: Xitoy tili sintaksisi**

Sintaksis haqida tushuncha. Uning turlari va boshqa tillardan farqil jihatlari o‘rganish.

**8-9 Mavzu: Old ko‘makchili birikmalar**

“跟”、“给”old ko‘makchilarining gapda foydalanish qoidalari. Ularning tarjimai va gapdagi o‘mi.

**10-11- Mavzu: Bog‘lovchilar**

Xitoy tilida bog‘lovchilarning ishlatilishi; Bog‘lovchilarning turlari/ zidlov bog‘lovchilarining ifodalanishi.

**12-13 Mavzu: Xitoy tilida gapning ikkinchi darajali bo‘laklari**

Xitoy tilida ikkinchi darajali bo‘laklar aniqlovchi, to‘ldiruvchi va holning gapdagi o‘mi, mohiyati. Ularning ishlatilish strukturasi.

**14-15-Mavzu: Xitoy tilida fe‘l**

Xitoy tilida fe‘llarning morfologik va sintaktik strukturasi yoritib berish, ularning turlari va farqlarini o‘rganish. Modal, kauzativ, bog‘lovchi, standart fe‘llar, imkoniyatni ifodalovchi fe‘llarning gapda ifodalanishi.

**16-Mavzu: 多么 so‘zi**

Xitoy tilida ushbu ieroglifning undov ma‘noda ifodalanishi, gapdagi o‘mi va xususiyatlari.

**17-18 Mavzu: Xitoy tilida noanoq miqdor**

Xitoy tilida noanoq miqdori bildiruvchi so‘zlarni o‘rganish. 大概, 左右, 差不多, 几乎 so‘zlarining ishlatilishidagi farqi va o‘xshash jihatlari.

**19-Mavzu: Xitoy tilida taqqoslash usullari.**

Taqqoslashni ifodalovchi konstruksiyalarning qo‘llanish xususiyatlarini yoritib berish, 跟。。。一样, 跟。。。不一样, 好像。。。似的, 如何。。。似的 konstruksiyalari.

**20-21 Mavzu: Xitoy tilida ko‘makchilar.**

Ko‘makchi so‘zlar haqida ma‘lumot. Vaqt, joy, yo‘nalish, usul, maqsad va majhul



nisbatni ifodalovchi ko'makchilar va ularning qo'llanilishi.

**22-Mavzu: Zidlov bog'lovchilari ishtirokidagi konstruksiyalar**

Xitoy tilida konstruksiyalar va ularning semantik ma'nolari  
“尽管.....但是.....”, “不.....不.....”, “既.....又.....” konstruksiyalarini

qo'llanilishi.

**23-Mavzu: 把 ko'makchili gaplar.**

把 ko'makchisi orqali tuzilgan gaplarning xususiyatlari, ularning turlarim struktur  
semantik jihatlari.

**24-25 Mavzu: Xitoy tilida majhul nisbarning ifodalanishi.**

Xitoy tilida majhul nisbatni ifodalovchi gaplarning qo'llanilishi, xususiyatlari. Majhul  
nisbatning ifodalanishidagi uch usul haqida ma'lumot.

(o'rta yuqori- daraja II)

**1-2- Mavzu: Xitoy tilida otlarning ifodalanishi.**

Ot so'z turkumiga oid so'zlarning morfologik va sintaktik xususiyatlari. Lokativ,  
temporativ ba direktiv tushunchalariga ma'lumot berish.

**3-4-Mavzu: Lokativ, temporativ va direktivlar haqida tushuncha**

Ushbu terminlar haqida tushuncha berish. Otlarning aynan shu turlarini o'rganish,  
ularni to'g'ri ajrata bilish.

**5-6-Mavzu: Xitoy tilida sonlarning ifodalanishi.**

Son so'z turkumiga oid so'zlar haqida ma'lumot berish. Son darajalarini o'g'atish, foiz  
va kasr sonlarning ifodalanishi ko'rib chiqish.

**7 -Mavzu: 二 va 两 ifodalanishi.**

Ushbu sonlarning farqli jihatlari gapdagi ishlatilish xususiyatlarini o'rganib chiqish.

**8-9-Mavzu: Xitoy tilida davomiylikni ifodalovchi fe'lini ifodalab kelinishi.**

Xitoy tilida davomiylikni ifodalovchi ierogliflarni o'rganish, ularning gapda ishlatilish  
hodisalarini ko'rib chiqish. 着, 正在, 在, 正。呢 lar orasidagi farqni o'rganish.

**10-11-Mavzu: Xitoy tilida taxmin sonlarning ifodalanishi.**

Xitoy tilida taxmin sonlarning ifodalovchi turlari. Raqamlardan keyin keluvchi taxminiy  
sonni ifodalovchi 来, 多, 左右/上下 kabi so'zlarni keltirish orqali taxminiy sonlarni  
ifodalanishi.

**12-13-14- Mavzu: Hisob so'zlarning ifodalanishi.**

Hisob so'zlar, ismiy hisob so'zlar, fe'liy hisob so'zlar haqida ma'lumot. Hisob so'  
zlarning qo'llanilish xususiyatlarini o'rganish.

**14-15-Mavzu: Xitoy tilida sifatning ifodalanishi.**

Xitoy tilida sifat turkumiga oid so'zlarning morfologik va sintaktik xususiyatlarini  
yoritib berish.

**16-17-Mavzu: Xitoy tilida ot, sifat sonlarning reduplikatsiyasi,**

Reduplikatsiya hodisasi haqida tushuncha berish. Ushbu so'z turkumlarida  
reduplikatsiya hodisasining o'rni.

**18-19-Mavzu: Xitoy tilida so'roq olmoshlarining darak gaplarda ishlatilishi.**

So'roq olmoshlarining turlari. Ularning gapdagi o'rni. Darak gapda so'roq

olmoshlarining ishlatilishidagi farqi.

**20-21-Mavzu: Daraja ravishlarining ifodalanishi.**

Gapda ravishlarning qo'llanilish xususiyatlari. Daraja ravishining ifodalanishi.  
Ularning bir biridan farqli jihatlari haqida ma'lumot berish.

**22-23-Mavzu: Payt ravishlarining ifodalanishi.**

Gapda ravishlarning qo'llanilish xususiyatlari. Payt ravishining ifodalanishi. Ularning  
bir biridan farqli jihatlari haqida ma'lumot berish. 马上, 立刻, 常常, 渐渐, 从来,  
刚, 刚才,

**24-25-Mavzu: Modallikni ifodalovchi ravishlar.**

Gapda ravishlarning qo'llanilish xususiyatlari. Modallikni ifodalovchi ravishining  
ifodalanishi. Ularning bir biridan farqli jihatlari haqida ma'lumot berish. 难道, 到底,  
反正, 却, 难怪。

**Xorijiy sharq tili (yuqori- daraja I)**

**1-2 mavzu. 别总说“亲爱的”好不好 matni. Xitoy tilida gaplarning tuzilishi.**

Xitoy tilidagi A+得多 darajani ifodalovchi konstruksiyasi, 一天比一天+A

konstruksiyasi, 不是....., 而是.....konstruksiyalarining gapda qo'llanilish qoidalari  
o'rgatiladi hamda matnda uchragan Xitoy madaniyatiga oid bo'lgan so'zlarning xitoy  
tilidagi o'rni va xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi.

**3-4 mavzu. 没有说出的“爱”matni. Xitoy tilida gaplarning tuzilishi.**

总(是)、终于、必须、究竟 so'zlarining gapdagi o'rni, bir biriga o'xshash hamda  
farqli jihatlari, qo'llanilish strukturasi o'rgatiladi.

**5-6 mavzu. “半边天”和“全职太太” matni. Xitoy tilida juft inkor.**

Xitoy tilida juft inkorning gapda qo'llanilishi hamda matnda uchragan Xitoy  
madaniyatiga oid bo'lgan so'zlarning xitoy tilidagi o'rni va xususiyatlari haqida ma'lumot  
beriladi.

**7- mavzu. 谈谈中国妇女的地位 matni. 几乎, 为了, 在.....方面, 在.....中  
konstruksiyalari.**

Xitoyda ayollarning o'rni mavzusida suhbat olib boriladi, yuqoridagi  
konstruksiyalarning gapda qo'llanilish qoidalari o'rgatiladi.

**8-9 mavzu. 我想自己开个律师事务所 matni. 连动兼语句.**

Matn bilan tanishib chiqiladi hamda xitoy tilida uzluksiz ketma-ket bog'lanuvchi  
jumalarning tuzilishi haqida ma'lumot beriladi.

**10-mavzu. 招聘男主角 matni. 即使....., 也.....**

不管....., 都/也.....konstruksiyasi.

Yuqoridagi matn ko'rib chiqiladi va matnda qo'llanilgan konstruksiyalar haqida  
tushuncha beriladi.



11-12 mavzu. 洋姑爷在农村过春节 matni. 反问句.

Xitoy tilida ritorik so'roq gaplarning qo'llanilish qoidalari o'rgatiladi.  
Xitoy yangi yili haqida suhbat olib boriladi.

13-14 mavzu. 远亲不如近邻 matni.

不但不没....., 反而....., 不是....., 就是.....

Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni yaxshi matni o'qib tahlil qilinadi hamda ikki xalq madaniyati taqqoslanadi. Undan tashqari matnda qo'llanilgan konstruksiyalarning ishlatilish qoidalari o'rgatiladi.

15- mavzu. 读《孔乙己》 matni. 形容词重叠做谓语.

Matn bilan tanishib chiqiladi va Konfutsiy haqida suhbat olib boriladi. Sifatning takrorlanishi gapda kesim vazifasida kelishi tushuntiriladi hamda mashqlar bajariladi.

16- mavzu. 跟巴金先生握手——马大为的日记 matni. V/A+坏/死+了

不没(有)....., 就..... konstruksiyasi.

Yuqoridagi konstruksiyalarning gapda qo'llanilishi qoidalari o'rgatiladi hamda Xitoy madaniyatida salomlashish odobi haqida ma'lumot beriladi.

17- mavzu. 买的没有卖的精 matni. 动词重叠 形容词重叠.

Xitoy tili grammatikasida fe'l va sifatlarning takrorlanish qoidalari o'rgatiladi. Matn bilan tanishib chiqiladi.

18- mavzu. “胖阿姨”文具店 matni. 表示比较的方法, 复句小结.

Xitoy tilida qiyoslashni ifodalovchi usullar o'rgatiladi, murakkab gaplar haqida ma'lumot beriladi. Matn bilan tanishib chiqiladi hamda matn asosida suhbat olib boriladi.

19- mavzu. 马大为求职 matni. 介词短语补语, 是字句.

Matn bilan tanishib chiqiladi hamda xitoy tilida old ko'makchili iboralarning tuzilishi hamda xitoy tilida “是”li gaplar haqida ma'lumot beriladi.

20- mavzu. 一封求职信 matni. 无论....., 都/也..... konstruksiyasi.

Matn o'qib tahlil qilinadi hamda konstruksiyani gapda qanday qo'llanilishi o'rgatiladi.

Xorijiy sharq tili (yuqori- daraja II)

1- mavzu. 现在谁最累 matni. 兼语句.

Matn bilan tanishib chiqiladi hamda xitoy tilida ketma-ket bog'lanuvchi jumlar orqali gaplarning yasaliishi, ularning turlari hamda ishlatilish xususiyatlari va e'tiborli jihatlarini o'rgatiladi.

2- mavzu. 女儿今年才八 matni. 在.....下, 要么....., 要么.....konstruksiyasi.

Yuqoridagi konstruksiyalarning yasaliishi. gapdagi o'rni o'rgatiladi.

3- mavzu. 打工的大学生多起来了 matni. 兼语句

Matn bilan tanishib chiqiladi hamda xitoy tilida ketma-ket bog'lanuvchi jumlar orqali gaplarning yasaliishi, ularning turlari hamda ishlatilish xususiyatlari va e'tiborli jihatlarini

o'rgatiladi.

